



“TASDIQLAYMAN”
Toshkent viloyati statistika
boshqarmasi boshlig'i
Sh.M. Jamoldinov
2024 yil “8” *May*

Toshkent viloyat statistika boshqarmasi **Narx statistikasi bo'limi** **NIZOMI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Toshkent viloyat statistikasi boshqarmasi Narx statistikasi bo'limining (keyingi o'rinlarda bo'lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4-martdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-114-son Qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Toshkent viloyatistatistika boshqarmasi (keyingi o'rinlarda boshqarmasi deb ataladi) tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

3. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, “Rasmiy statistika to'g'risidagi”gi qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning normativ qarorlariga, Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, “Toshkent viloyat statistika boshqarmasi to'g'risida”gi Nizomga, mazkur nizomga, shuningdek boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo'lim narxlar statistikasi masalalari bo'yicha faoliyatini Statistika agentligining Narxlar statistikasi boshqarmasi hamda viloyat statistika boshqarmasining tarmoq bo'limlari va shahar, tuman statistika bo'limlari (keyingi o'rinlarda hududiy statistika bo'limlari deb ataladi) bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Bo'lim o'z faoliyatini Statistika agentligi markaziy apparatining boshqa tarkibiy bo'linmalari va hududiy statistika o'rganlari bilan o'zaro hamkorlikda va hududiy statistika organlari bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

Bo'lim o'z vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha Toshkent viloyat statistika boshqarmasining tegishli o'rinbosariga bo'ysunadi.

2-bob. Bo'limning asosiy vazifalari va funksiyalari

6. Quyidagilar bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) Statistika sohasida ishlab chiqilgan yagona siyosatni amalga oshirishda, faoliyatni muvofiqlashtirishda, funksional tartibga solish sohasida:

Statistika ishlagi dasturi, Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, narxlar statistikasi ishlarining reja-jadvali, boshqarmaning ish rejalarini o'z vaqtida shakllantirilishida ishtirok etish;

narx statistikasi bo'yicha statistik hisobotlarni yuritishda qiyosiy va taqqoslama tahliliy ma'lumotlarni o'z muddatlarida sifatli tayyorlanishini ta'minlash;

narxlar statistikasi bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash tizimini takomillashtirish;

narxlar statistikasi bo'yicha statistik ko'rsatkichlarning ishonchliligini, xolisligini va kompleksligini ta'minlash, narxlar statistikasiga oid Statistika ishlari dasturining bajarilishini ta'minlash;

Statistika agentligining narxlar boshqarmasi hamda Toshkent viloyat statistika boshqarmasining tarmoq bo'limlari va hududiy statistika organlari bilan birgalikda narx statistikasi sohasida axborotlarni shakllantirish bo'yicha ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish.

b) xalqaro standartlarga muvofiq, narx statistikasiga oid ilmiy asoslangan statistik metodologiyani joriy etish sohasida:

narxlar statistikasi sohasida ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish;

Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida amalga oshiriladigan davlat va idoraviy statistika kuzatuvlari tizimini maqbullashtirishda, tanlanma statistika kuzatuvlari sonini va natijalarining ishonchliligini bosqichma-bosqich oshirish bo'yicha ishlarni tashkil qilishda, idoraviy statistika kuzatuvlari shakllarini ishlab chiqishda va kelishish choralari ko'rishda ishtirok etish;

boshqarma tarmoq bo'limlari hamda shahar va tuman statistika bo'limlarining narxlar statistikasi sohasida axborotlarni shakllantirish bo'yicha ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

ilmiy asoslangan, bozor iqtisodiyotining asosiy prinsiplariga mos keladigan yagona statistika metodologiyasini ishlab chiqishda ishtirok etish;

bo'linga tegishli davlat statistik kuzatuvi shakllarini takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish va kiritishni;

narx statistikasi nazariyasining yangi tendensiyalarini va iqtisodiy jarayonlarni o'rganish, tahlil qilish, hisobot shakllariga mos o'zgartirishlar kiritish bo'yicha vazirliklar, idoralar takliflarini o'rganish hamda ularni Statistika agentligining narxlar boshqarmasi tomonidan muhokama etilishiga takliflar kiritish.

c) statistika axborotlarini yig'ish, qayta ishlash, to'plash, saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilish sohasida:

narx statistikasi hisobot ko'rsatkichlari ma'lumotlarining ishonchliligi, xolisligi, kompleksligi va tizimligini ta'minlash bo'yicha hududiy statistika organlarining faoliyatlari monitoringini yuritish;

umumqabul qilingan xalqaro standartlarga muvofiq, narx statistikasi faoliyatiga tegishli qismi bo'yicha statistik indikatorlar tizimini yaratish va rivojlantirishda ishtirok etish.

d) statistik ma'lumotlar bilan ta'minlash sohasida:

davlat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, yuridik shaxslar, davlat muassasalari va xalqaro tashkilotlar, shuningdek boshqa foydalanuvchilarni narx statistikasi faoliyatiga tegishli ma'lumotlar bilan belgilangan tartibda ta'minlash;

narx statistikasi faoliyati metodologiyasi masalalari bo'yicha yordam ko'rsatish;

narx statistikasi masalalari bo'yicha hududiy statistika organlari xodimlari uchun maslahatlar va seminarlarni tashkil etish.

6. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

bo'lim shahar va tuman statistika bo'limlarining narx statistikasi masalalari bo'yicha

o'zlariga yuklatilgan vazifa va funksiyalarini samarali amalga oshirish bo'yicha faoliyatini tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

narx statistikasi sohasida Statistika hisobotlari tizimini takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari, shu jumladan, elektron shakldagi murojaatlarning tegishli qismini ko'rib chiqadi va ulardagi masalalarni hal qilish bo'yicha, zarur hollarda jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari ishtirokida takliflar tayyorlaydi;

Bo'lim o'z faoliyatiga oid statistika uslubiylari, statistika ishlarini tashkil etish masalalari bo'yicha Toshkent viloyat statistika boshqarmasining tarmoq bo'limlari va hududiy statistika bo'limlariga yordam ko'rsatadi;

statistik to'plamlar va ma'ruzalar uchun narx statistikasi bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydi;

Statistika ishlari dasturiga muvofiq, Boshqarma rahbariyati topshirig'iga asosan hamda foydalanuvchilarning so'rovlari asosida narx statistikasiga oid ma'lumotlarni tayyorlaydi;

narx statistikasi amaliyotiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishda ishtirok etadi;

Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha tizimlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to'ldirilib va yangilanib borilishini ta'minlaydi;

narx statistikasi bo'yicha statistik ko'rsatkichlarning ishonchliligini, xolisligini va qiyosiylikini ta'minlaydi, sohaga oid statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va saqlash tizimini takomillashtiradi;

narx statistikasi doirasida Statistika kuzatuv shakllari, ularni to'ldirish tartiblari bo'yicha tushuntirishlarni, statistik ko'rsatkichlarni takomillashtirish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

Statistika ishlari dasturiga muvofiq, Agentlik rahbariyati va boshqarma rahbariyati topshirig'iga hamda foydalanuvchilarning so'rovlari asosida narx statistikasi bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydi;

statistika hisobotlarini elektron tarzda taqdim etilishini qamrovini ta'minlaydi;

Bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha tizimlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to'ldirilib va yangilanib borilishini ta'minlaydi;

Bo'lim o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan iqtisodiyotning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini, iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, tarkibiyo'zgartirish va diversifikatsiya qilish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlarda belgilangan vazifalarni hamda viloyat hududida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning tendensiyasini (holatini) hisobga olgan holda ta'minlaydi.

Bo'lim belgilangan tartibda o'ziga yuklangan boshqa funksiyalarni ham bajaradi.

3-bob. Bo'limning huquq va javobgarligi

7. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

narx statistikasi sohasida kuzatuvlarni tashkil etish va uslubiylarini takomillashtirish masalalari bo'yicha boshqarma rahbariyatiga takliflar kiritish;

bo'limga yuklatilgan funksiyalarni bajarilishi uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni hududiy statistika organlaridan olish;

bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha boshqarmaning tarmoq hamda hududiy statistika bo'limlari bilan hamkorlik qilish;

narx statistikasiga oid statistika hisobotlarini muddatlarida yig'ish, ularni qayta ishlash, to'liqliligini ta'minlash;

bo'lim o'ziga yuklangan vazifalarning zarur darajada va samarali bajarilishi uchun, bo'limga kelib tushgan va chiqayotgan materiallarning davlat, tijorat sirlariga rioya qilinishi va saqlanishini ta'minlash uchun javob beradi;

bo'lim boshlig'i va xodimlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan eng muhim ustuvor vazifalar va zamonaviy talablardan kelib chiqib, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risidagi"gi Qonuni, "Toshkent viloyati statistika boshqarmasi to'g'risida"gi Nizom hamda ushbu Nizomda belgilangan vazifalar, funksiyalar, majburiyatlarni to'liq, o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishi, o'ziga berilgan vakolatlar, huquqlardan qonun hujjatlariga muvofiq foydalanilishi uchun javob beradilar;

bo'lim faoliyatiga tegishli masalalar bo'yicha konferensiyalar, seminarlar va yig'ilishlar, shu jumladan xalqaro yig'ilishlarda ishtirok etadi;

boshqa davlat tashkilotlaridan bo'lim vakolatiga kiruvchi Statistika ishlarini olib borish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni, shuningdek ularga ilova etiladigan tushuntirishlarni so'rash va olish;

narx statistikasi uslubiyati va statistika kuzatuvlarini tashkil etishga aloqador bo'lgan masalalar bo'yicha axborot-tushuntirish ishlarini olib borish;

8. Bo'lim quyidagilar uchun javobgar:

o'ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim darajada bajarish;

vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari to'g'ri qo'llanilishini ta'minlash;

Narx statistikasi sohasiga oid statistic ma'lumotlarning ishonchliligi, xolisligi va to'liqliligini ta'minlash;

tashkilot va davlat sirlarini maxfiyligini ta'minlash;

Statistika agentligi va Toshkent viloyati statistika boshqarmasi tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, bo'lim xodimlari tomonidan ijro intizomini ta'minlash.

4-bob. Bo'limning tuzilmasi

9. Bo'limning tuzilmasi bo'lim boshlig'i, bo'lim boshlig'ining o'rinbosari, bosh mutaxassis va yetakchi mutaxassislardan iborat.

10. Bo'lim faoliyatiga bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.

11. Bo'lim boshlig'i va bo'lim mutaxassislari viloyat statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va ozod qilinadi.

12. Bo'limning ish rejasi va ish hisoboti, viloyat statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan Statistika ishlar dasturiga muvofiq tasdiqlanadi.

13. Bo'lim shtatlari soni va ish haqi miqdori viloyat statistika boshqarmasi shtat jadvali asosida belgilanadi.

14. Bo'limni mazkur Nizomi asosida bo'lim boshlig'i boshqaradi. Bo'lim Nizomi va lavozimlar yo'riqnomasi viloyat statistika boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi.

5-bob. Bo'lim faoliyatini tashkil etish

15. Bo'limning ishi O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risidagi"gi qonuni, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlari dasturi, Statistika

agentligi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlarini ishlab chiqish dasturi, Toshkent viloyati statistika boshqarmasi to'g'risida Nizom, mazkur Nizom, Statistika agentligi raisi va boshqarma boshlig'ining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek Statistika agentligining ish rejalari hamda viloyat statistika boshqarmasining ish rejalari va bo'lim xodimlarining funksional vazifalari asosida tashkil etiladi.

Bo'limning ish rejasi boshqarma boshlig'i tomonidan tasdiqlanadigan boshqarma ish rejalari asosida shakllantiriladi va boshliqning birinchi o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

Xodimlarning funksional vazifalari bo'lim boshlig'i tomonidan bo'limga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi va viloyat statistika boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi.

6- bob. Bo'lim boshlig'i:

Bo'limga bevosita rahbarlikni amalga oshiradi, bo'lim xodimlarining ishini tashkil qiladi, xodimlar o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, bo'limga yuklangan vazifa va funksiyalarning lozim darajada bajarilishi, ijro va mehnat intizomining holati uchun shaxsan javob beradi;

Bo'limning tasdiqlangan tuzilmasi va shtat jadvaliga muvofiq lavozimlarga tavsiya qilingan nomzodlar, xodimlarning kasbiy darajasi va ish malakasini oshirish, ularni rag'batlantirish va jazolash choralari bo'yicha takliflarni puxta ishlab chiqadi va rahbariyatga ko'rib chiqish uchun kiritadi;

Bo'limning ish rejasi loyihasini ishlab chiqadi va Boshqarma boshlig'iga tasdiqlash uchun kiritadi;

Bo'lim xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

Boshqarmaning yig'ilishlari va majlislarida, shuningdek rahbariyatining topshirig'iga binoan Boshqarma tasarrufiga kiruvchi masalalar bo'yicha idoralararo ishchi guruhlar va kengashlar faoliyatida ishtirok etadi;

Statistika sohasida normativ va metodologik hujjatlarni va Statistika kuzatuvlari shakllari loyihalarini ekspert jihatdan puxta ishlab chiqilishini tashkil qiladi;

Boshqarma boshlig'i va o'rinbosarlarining topshiriqlariga muvofiq tahliliy va umumlashtiruvchi materiallarni tayyorlaydi, qo'yilgan vazifalarni yanada samarali amalga oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishini ta'minlaydi;

Boshqarmaning va bo'limning joriy va istiqbol ish rejalariga muvofiq Boshqarma vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha tahliliy va boshqa materiallarni o'z vaqtida, tizimli asosda tayyorlanishini ta'minlaydi;

normativ-huquqiy hujjatlar, rejalar va dasturlar loyihalarini ishlab chiqish va ekspertiza qilishda, shuningdek ularning Statistika tegishli qismini ijro etishda ishtirok etadi;

Bo'lim ishining samaradorligi darajasini oshirish va kadrlar bilan to'ldirish choralari ko'radi;

Bo'lim kadrlari zaxirasini shakllantirishni va yangilashni, kadrlar zaxirasiga kiritilgan shaxslar bilan tizimli ishlarni tashkil qilishni ta'minlaydi;

Bo'lim xodimlari bilan yuklatilgan vazifalar, kiruvchi hujjatlarni nazorat qilish va tajriba almashish masalalari yuzasidan yo'riqnoma berish bo'yicha yig'ilishlar o'tkazadi;

ish yuritishni olib borish, topshiriqlarni o'z vaqtida ijro etilishini qat'iy nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil qiladi, xodimlar tomonidan xizmat hujjatlari bilan ishlash va ularni saqlash bo'yicha ishlarning belgilangan tartibiga amal qilinishini ta'minlaydi.

7-bob. Bosh mutaxassisi:

Narx statistikasi faoliyatiga aloqador barcha masalalarni qamrab oluvchi kompleks ishlarni amalga oshiradi;

statistika hisobot shakllarini shakllantirish, ishlab chiqish va takomillashtirishda faol qatnashadi;

ilmiy jurnallar, xalqaro tashkilotlarning metodologik nashrlari va internet tarmog'idagi materiallarni o'rganish asosida statistika sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani rivojlantirish va statistika amaliyotiga joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

funksional vazifalariga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarmaning tarmoq hamda shahar va tuman statistika bo'limlariga maslahat yordami ko'rsatadi;

ma'ruzalar, statistik byulleten va to'plamlar uchun ma'lumotlar tayyorlaydi;

statistik hisobot shakllarining dasturiy bazasini takomillashtirish bo'yicha olib boriladigan ishlarda faol qatnashadi;

bo'lim boshlig'i bilan birgalikda taqdim etilayotgan statistik ma'lumotlar va hisobotlarning ishonchliligi va aniqligini tekshiradi;

davlat va tijorat sirlariga ega statistik ma'lumotlarning saqlanishini ta'minlaydi;

bo'limga tegishli ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashga, kelib tushuvchi va chiquvchi materiallar bo'yicha davlat va tijorat sirlarini saqlashga javob beradi;

Statistikaagentligi xodimlariga qo'yilgan talablarni, va ushbu nizomda belgilangan funksional vazifalarni sifatli va o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi;

o'z ish faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Rasmiy statistika to'g'risidagi"gi va boshqa qonunlarga, Oliy Majlisning me'yoriy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, shuningdek, boshqarmaning nizomiga va ushbu nizomga qat'iy amal qilishi lozim;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

8-bob. Bo'lim bosh mutaxassisi:

belgilangan ish sohasi bo'yicha hisobotlarni o'z vaqtida shakllantirish va to'plashni qat'iy nazorat qiladi;

Statistika hisobot shakllarini ishlab chiqish va takomillashtirishda faol qatnashadi;

ilmiy jurnallar, xalqaro tashkilotlarning metodologik nashrlari va internet tarmog'idagi materiallarni o'rganish asosida statistika sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani rivojlantirish va statistika amaliyotiga joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

funksional vazifalariga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarmaning tarmoq hamda shahar va tuman statistika bo'limlariga maslahat yordami ko'rsatadi;

ma'ruzalar, statistik byulleten va to'plamlar uchun ma'lumotlar tayyorlaydi;

statistik hisobot shakllarining dasturiy bazasini takomillashtirish bo'yicha olib boriladigan ishlarda qatnashadi;

bo'lim boshlig'i bilan birgalikda taqdim etilayotgan statistik ma'lumot va hisobotlarning ishonchliligi va aniqligini tekshiradi;

bo'lim faoliyatiga doir analitik hisob-kitoblarni amalga oshiradi;

Bo'lim yetakchi mutaxassisi o'z ish faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Rasmiy statistika to'g'risidagi"gi va boshqa qonunlarga, Oliy Majlisning me'yoriy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaror va farmonlari hamda Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, shuningdek, boshqarmaning, bo'limning nizomiga va ushbu yo'riqnomaga qat'iy amal qilishi lozim.

funksional vazifalariga muvofiq materiallar, takliflar va hujjatlar loyihalarining sifatli, ishonchli va o'z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

ilmiy jurnallar, xalqaro tashkilotlarning metodologik nashrlari va Internet tarmog'idagi

materiallarni o'rganish asosida statistika sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani rivojlantirish va statistika amaliyotiga joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

bo'lim boshlig'ining topshirig'iga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni yig'adi va ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha loyihani tayyorlaydi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

9-bob. Bo'lim yetakchi mutaxassisi:

belgilangan ish sohasi bo'yicha hisobotlarni o'z vaqtida shakllantirish va to'plashni qat'iy nazorat qiladi;

Statistika hisobot shakllarini ishlab chiqish va takomillashtirishda faol qatnashadi;

funksional vazifalariga muvofiq materiallar, takliflar va hujjat loyihalarining sifatli, ishonchli va o'z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

ma'ruzalar, statistik byulleten va to'plamlar uchun ma'lumotlar tayyorlaydi;

statistik hisobot, shakllarining dasturiy bazasini takomillashtirish bo'yicha olib boriladigan ishlarda qatnashadi;

bo'lim boshlig'i bilan birgalikda taqdim etilayotgan statistik ma'lumot va hisobotlarning ishonchliligi va aniqligini tekshiradi;

bo'lim faoliyatiga doir tahliliy hisob-kitoblarni amalga oshiradi;

bo'lim boshlig'ining topshirig'iga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko'rib chiqish uchun zarur materiallar va ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha takliflar tayyorlashda ishtirok etadi;

funksional vazifalariga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarmaning tarmoq hamda shahar va tuman statistika bo'limlariga maslahat yordami ko'rsatadi;

ish yuritishni olib boradi, Bo'limda hujjatlarning o'tish tartibini tashkil qiladi, hujjatlarni arxivda saqlash uchun tayyorlash va o'z vaqtida topshirishni ta'minlaydi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.